

“NIDO” DOSTONIDA QAHRAMON RUHIYATI ORQALI DAVR MUHITINING IFODALANISHI

Ravshanova Madina Zafarjon qizi

University of Business and Science talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21900117>

Annotatsiya: Mazkur maqolada “Nido” dostonida qahramon ruhiyati orqali davr muhitining badiiy ifodalanishi tahlil qilinadi. Dostonda urush va uning inson hayotiga, ayniqsa, shaxsning ruhiy olamiga ko’rsatgan ta’siri, qahramonning ichki kechinmalari, iztiroblari, xotiralari va ruhiy ziddiyatlari orqali yoritilishi tadqiq etiladi. Asarda individual ruhiyat va tarixiy-ijtimoiy muhit o’rtasidagi o’zaro aloqadorlikka alohida e’tibor qaratilib, qahramonning shaxsiy kechinmalari orqali davrning murakkab ijtimoiy va ma’naviy manzarasi ochib berilishi ko’rsatiladi. Shuningdek, xotira, iztirob, ayriliq, urush, ona, farzand va vatan kabi obraz va motivlarning qahramon ruhiyatini ochish hamda davr ruhini ifodalashdagi poetik vazifalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida “Nido” dostonida tarixiy voqelikning bevosita bayonidan ko’ra, uning inson ruhiyatidagi aks-sadosi orqali davr muhitining badiiy yaxlitligi yaratilishi asoslanadi.

Kalit so'zlar: “Nido” dostoni, qahramon ruhiyati, davr muhiti, urush, tarixiy xotira, psixologizm, ruhiy kechinma, iztirob, ayriliq, xotira, badiiy obraz, poetik talqin.

Abstract: This article analyzes the artistic representation of the historical and social atmosphere of the period through the psychological state of the characters in the epic poem Nido. Particular attention is paid to the impact of war on human life and, especially, on the inner world of the individual. The study examines the character’s emotional experiences, suffering, memories, and psychological conflicts as important means of representing the historical atmosphere of the period. Special emphasis is placed on the interaction between individual psychology and the historical-social environment, demonstrating how personal experiences reveal the complex social and moral landscape of the era. The poetic functions of such images and motifs as memory, suffering, separation, war, mother, child, and homeland in revealing the character’s inner world and expressing the spirit of the period are also examined. The study argues that the artistic integrity of the historical atmosphere in Nido is created not merely through the direct narration of historical events, but primarily through their psychological resonance within the human consciousness.

Keywords: Nido, character psychology, historical atmosphere, war, historical memory, psychologism, emotional experience, suffering, separation, memory, artistic image, poetic interpretation.

Аннотация: В статье анализируется художественное выражение атмосферы эпохи через психологическое состояние героев в эпической поэме «Нидо». Исследуется влияние войны на жизнь человека, особенно на его внутренний мир, а также раскрываются переживания, страдания, воспоминания и психологические противоречия героя как важные средства художественного изображения эпохи. Особое внимание уделяется взаимосвязи индивидуальной психологии и историко-социальной среды, благодаря чему личные переживания героя позволяют раскрыть сложную социальную и духовно-нравственную картину времени. Рассматриваются также поэтические функции таких образов и мотивов, как память, страдание, разлука, война, мать, ребёнок и Родина, в раскрытии внутреннего мира героя и выражении духа

эпохи. В результате исследования обосновывается, что художественная целостность атмосферы эпохи в поэме «Нидо» создаётся не столько посредством непосредственного повествования об исторических событиях, сколько через их психологическое отражение в сознании человека.

Ключевые слова: поэма «Нидо», психология героя, атмосфера эпохи, война, историческая память, психологизм, душевное переживание, страдание, разлука, память, художественный образ, поэтическая интерпретация.

XX asrda butun bir insoniyat xotirasida saqlanib qolgan voqea xodisalaridan biri ikkinchi jahon urushidir. Ushbu urush qanchadan-qancha insonlarni hayotdan erta olib ketdi. Tirik qolganlarni esa o'zining shafqatsiz chig'irig'idan birma-bir o'tkazdi. U otalar jasorati va onalar matonati hisobiga kun ko'rdi. Undan qolgan asoratlar esa hali-hamon unutilgani yo'q.

Urush - bu ma'naviyat ildiziga urilgan boltadir.

Dunyoda hech narsa bejiz ketmaydi. Zero, urush keltirgan talofatlar yozuvchi va shoirlar ijodida o'zgacha ko'rinish kasb etdi. Ko'plab ijodkorlar tomonidan unga bag'ishlab doston, roman, qissa va hikoyalar yozdilar. Bu borada jahon adabiyoti vakillaridan Ernest Hemingwayning “Alvido, qurol”, hamda Chingiz Aytmatovning “Jamila” asarlarini yodga olish kifoya. O'zbek yozuvchi va shoirlari ham jahon adabiyoti namunalaridan qolishmagan, estetik-badiiy jihatdan boy asarlar yaratishdi. Shuhratning “Shinelli yillar”, Said Ahmadning “Ufq” trilogiyasi, O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asarlari buning yorqin dalilidir.

Erkin Vohidovning “Nido” dostoni ham ana shunday asarlar sirasiga kiradi. Bu haqida adabiyotshunos olim Ibrohim G'ofurovning “Mangu latofat” nomli asaridan quyidagi fikrlarni o'qish mumkin:

“Bolalikning taassurotlari, ayniqsa, uning ilk ijodi namunalarida 60-yillarda yorqin namoyon bo'ldi. Uning barcha she'rlaridan beg'ubor tong nafasi ruhi sezilib turadi. Shu bilan birga otani sog'inish ruhi ilk davr she'riyatining mag'ziga singib yotadi. Dunyoga yorqin bir shoir kelganidan xabar bergan” Buyuk hayot tonggi, “Nido” singari she'riy go'zal dostonlarining tubida ota sog'inchi yotadi. Bu sog'inch yosh shoir qalbining behad teran qalblaridan chiqadi. U bilinib-bilintirmay asarlarning ruhiga ko'chib o'tadi. Bu jihatdan ayniqsa, “Nido”da sog'inish ruhi ko'tariladi. Urush davrining bolalari bu dostonni o'z armonlarining ovozi kabi qabul qilgan edilar. Unda insoniy sog'inish yuksak samimiyat bilan ifodalangan ediki, hali-hanuz bu asarni hayajonlamasdan o'qib bo'lmaydi. “Nido” dan boshlab sog'inish va u bilan bog'liq rang-barang kechinmalar Erkin Vohidovning butun ijodida o'ziga xos o'rin va mavqeni ishg'ol etadi. Shoir ijodida bunchalar yuksak o'rin tutgan yurt sevgisi, haqni e'zozlash, insonni baland pardalarda kuylashda ham shu katta ma'nodagi sog'inishning kuchli ta'siri borligi ayon.[1.89]

Haqiqatdan ham, inson erki va taqdirini madh etish Erkin Vohidov ijodining yetakchi mavzusi hisoblanadi. U bashariyat dardini kuylovchi shoir sifatida adabiyot olamiga qadam qo'ydi. Shoirning “Nido” dostonida sog'inch hislari jo'sh urgan obrazli o'rinlar o'zining butun bir badiiy jozibasi bilan o'qituvchi ongiga singib boradi. U dostonini shunchaki bolalik xotiralarini yodga olish uchun yozmaydi, balki, dostonidagi har bir qahramon yoki obrazli o'ringa individual yondoshib, shu qahramonlar ruhiyatiga o'sha davrdagi ijtimoiy muhitni singdirish orqali kishida estetik-emotsional holatni vujudga keltiradi.

Bu bir tomondan shoirning ijodkorlik mahoratini namoyish etsa, ikkinchi tomondan asarni o'qiguvchi ham asardagi voqealarga aloqador shaxsga aylantirib qo'yadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek “Nido” dostoni urush mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, bosh qahramoni yigirma yashar yigit ana shu hayot-mamot urushidan so'ng voyaga yetgan yangi

avlodning umumlashma obrazidir. Asar ana shu lirik qahramonning o'tli hayqig'i bilan boshlanadi. Asarning keyingi bandida lirik qahramonning tush ko'rish tasviri va shu jarayon mobaynidagi uning ruhiy holati muallif tomonidan yoritib beriladi.

E'tibor qilaylik:

Qadamlar,

Qadamlar,

Og'ir qadamlar...

Etiklar zarbidan titraydi tuproq.

Qayerga ketmoqda shuncha odamlar?

Nahotki, yo'llari shunchalar yiroq!

- Ana, ko'ryapsanmi ?

Mening dadamlar!

Dada!!!

Ovozim chiqmaydi biroq.[2.146]

Ushbu o'rinlarda urush yo'llarining to'zonli kunlari tasvirlangan bo'lib, u murg'ak bola qalbida bir umrga muhrlanib qolgan. Unda lirik qahramonning ruhiyatida - xotirasida saqlanib qolgan voqealar urush davridagi muhit va shart-sharoitni muhim vosita bo'lib xizmat qilgan.

Cho'chib uyg'onaman, onam qoshimda,

Mehribon qo'llari otash boshimda

-Nega yig'layapsan, yolg'izim, qo'zim ?

Tun uzoq, uxlay qol ko'zlaringni yum.

Orom ol, men senga allalar aytay

Tongda peshonangdan o'pib uyg'otay.

Ona - yelkasida asrlar dardini ko'targan matonat timsoli.

Ona - ko'ngil olamini yoritguvchi shams-u qamar.[2.86]

Hayotning eng og'ir damlarida ham yonimizda turguvchi vafodor do'stimiz - shubhasiz, mo'tabar va mushfiq onalarimizdir.

Yuqoridagi parchada ham murg'ak qalb uchun og'ir bo'lgan hislar qurshovida qolgan bolaga mehr qo'llarini cho'zgan ona tasvirlangan.

Uning ham ayni damda o'z g'am-tashvishlari bor. Shunga qaramay, ko'nglidagi azob-uqubatlar orasidan bosh ko'targan mehr-muhabbat g'unchasini farzandiga tutishda o'zida kuch topa olgan onaga tasannolar aytging keladi.

Bu holat birgina asardagi lirik qahramonga tegishli emas, aksincha, u inson deya atalmish buyuk xilqatga daxldor tushunchadir.

Shoir asarda ana shunday o'zbekona va umuminsoniy qadriyatlarni ulug'lashga ham harakat qilgan.

“Dadajon!”

Men sizni juda sog'indim.

Sog'indim ikkala ko'zim bilan teng.

Kelib qolarmishsiz ertami-indin,

Ayam shunday deydi,

Rostmi shu, ayting?[2.159]

Ushbu misralarda lirik qahramon ruhiyatining nozik qirralarini ochib berilgan. Uni diqqat bilan o'qigan inson bolaning ko'nglida gupurib turgan sog'inch hissi, oddiy his-tuyg'ulardan tubdan farq qilishini, bolaning otasi oddiy yumush bilan emas Vatan himoyasi uchun jangga ketganini ich-

ichidan his etadi. Yuqoridagi misralar orqali bola yashagan davr va bugungi tinch-osoyishta, farovon kunimizni muqoyasa qilsak, “Tinchlik” deya atalgan buyuk ne'matni qadriga yetish kerakligini anglaymiz. Shuning barobarida hozirgi kunimizga cheksiz shukronalar aytamiz.

“Rustamning akasi urushdan qaytdi,
Qo'ltiqtayog'i bor,
Bir oyog'i yo'q,
Rustam aytib berdi:
Ataka payti
Tizzasidan olib ketgan emish o'q...
Xol aka qaytgandi uyga to'satdan,
O'g'li, dadajon, deb chopib kelibdi,
Ota quchay desa qo'li yo'q ekan,
Tik turgan joyida yig'layveribdi.
Darsga kelmay qoldi.
Tunov kun Tal'at,
Muallim urushsa turaverdi jim
Dadasidan kelgan ekan qora xat.
Hammamiz yig'ladik,
Hatto muallim...” [2.88]

Biz bu dunyoda yashar ekanmiz, hayotda inson qismatining ko'plab achinarli holatlariga guvoh bo'lamiz. Ikkinchi jahon urushining eng ayanchli ko'rinishlari ham ayni inson qiyofasida o'zini namoyish etdi. Ya'ni urush tufayli ko'plab insonlar nogiron bo'lib qoldi. Asarda xuddi “dengizdan bir tomchi” kabi urush fojealaridan parcha keltirilgan. Rustamning yosh, navqiron akasi bir oyog'idan ayrilib urushdan qaytdi. Xol aka ikki qo'lidan ajragan holda farzandlari quchog'idan joy oldi. Ammo o'quvchi - bola Tal'atning otasidan qora xat kelishi butun bir sinfni, hatto, muallimni ham yig'lashga majbur qildi. O'sha davr uchun biror kishidan qora xat kelishi odatiy hol bo'lsa-da, lekin murg'ak qalb uchun katta fojea edi. Chunki u hali ota mehriga to'ymay turib, otasi bu dunyodan ko'z yumishi bola uchun anglab bo'lmas hodisa edi. Buni chuqur tushunib yetgan muallim inson sifatida, jamiyatning faol bir a'zosi sifatida unga nisbatan achinish, rahm-shafqat hissini tuyib, ko'zlariga yosh oldi. Shoir asarda urush davrining qora kunlarini tasvirlash bilan birga insoniy fazilatlarni bo'rttirib ko'rsatadi.

“Nido” dostonini o'qir ekanmiz, unda hayot materiali orqali shoir uslubiga boshqa belgilar kiritilganligini ko'ramiz. Asar materialining dramatik xarakteri shonli otalar ishiga sodiq vorislik, sadoqat, ruhini poetik nutqda ifodalashni taqozo etadi. “Nido” poemasi ohangiga liro-poetik tasvir bo'rtib turadi. Agar uni shoirning “Palatkada yozilgan doston” poemasi bilan muqoyasa qilsak, har ikki poemada ham shoir uslubi ikki xil: “Nido” dostonida liro-poetik, “Palatkada yozilgan doston” da liro-publisistik uslub tasvirlar tusida namoyon bo'ladi. Shuning barovarida, Erkin Vohidov ijodida shaxs va jamiyat psixologiyasini bevosita aks ettirish yetakchilik qiladi.

References:

1. G'ofurov I. Mangu latofat. –T.: O'zbekiston. 2004.
2. Vohidov E. Umr daryosi. –T.: Sharq nashriyot matbaa konserni. 2000.
3. Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Sulton, I. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2005.
5. Boboyev, T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O'zbekiston, 2002.